
BARCANGIZGA OMAD TILAYMAN, AZIZ YOSHLAR!

Assalomu alaykum, qadrlı abiturient yoshlar!

Bugundan boshlab mamlakatimiz bo'ylab oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun test sinovlari boshlanadi.

Mana shunday hayajonli va mas'uliyatli kunlarda har bir abiturient qalbida kelajakka ishonch, OTM talabasi bo'lish ishtiyoqi jo'sh uradi. Shu bilan birga, bu kunlar yillar davomida olingan bilimlarning sinovi, ta'lim olgan maktabning, o'qituvchilarning obro'si, sha'nini himoya qilish kunlari hamdir.

Aziz yoshlar!

Barchangizga OTM imtihonlarida omad tilagan holda har biringizdan bor bilim va zakovatingizni namoyish etishni so'rayman.

Sizning imtihondagi muvaffaqiyatingiz hayotingizdagi tub burilish yasash nuqtasidagi muvaffaqiyatlardan biri bo'ladi.

Ishonamanki, sentyabr oyini barchangiz talaba sifatida OTMlarda boshlaysiz va yaqin yillarda Yangi Rishtonmizning yetuk kadrlariga aylanassiz.

Har biringizga omad hamroh bo'lsin, aziz abiturientlar!

S. SOLIEV, Rishton tumani hokimi

2022-08-08 14:44:30